



## Theoretical bases of assessment of reading comprehension skills in mother tongue education

Shohruh ABDIRAIMOV<sup>1</sup>

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

### ARTICLE INFO

**Article history:**

Received April 2021  
Received in revised form  
20 April 2021  
Accepted 15 May 2021  
Available online  
25 June 2021

**Keywords:**

assessment,  
reading comprehension,  
domain,  
construction,  
indicator,  
test.

## Ona tili ta'limida o'qib tushunish malakasini baholashning nazariy asoslari

**Kalit so'zlar:**

baholash,  
o'qib tushunish,  
mavzu doirasi,  
kostruksiya,  
indikator,  
test.

### ABSTRACT

Native language education develops students' speaking skills. Determining and assessing the level of development of these skills is a complex process. This article discusses what should be considered in assessing the level of development of reading comprehension skills, and what indicators should be used to assess reading comprehension skills.

2181-1415/© 2021 in Science LLC.

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

### ANNOTATSIYA

Ona tili ta'limida o'quvchilarning nutqiy malakalari rivojlantiriladi. Mazkur malakalarning rivojlanganlik darajasini aniqlash, baholash murakkab jarayon hisoblanadi. Ushbu maqolada nutqiy malakalardan biri o'qib tushunish malakasining rivojlanganlik darajasini baholashda nimalarga e'tobor berilishi kerakligi, aynan qanday indikatorlar bilan o'qib tushunish malakasini baholash maqsadga muvofiqligi haqida fikr yuritilgan.

<sup>1</sup> Lecturer, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi, Tashkent, Uzbekistan.

## Теоретические основы оценки навыков понимания прочитанного при обучении на родном языке

### АННОТАЦИЯ

**Ключевые слова:**

оценка,  
понимание прочитанного,  
предметная область,  
конструкция,  
индикатор,  
тест.

Обучение на родном языке развивает у учащихся разговорные навыки. Определение и оценка уровня развития этих навыков – сложный процесс. В этой статье обсуждается, какой из речевых навыков следует учитывать при оценке уровня понимания прочитанного и какие показатели следует использовать для оценки понимания прочитанного.


Ma'lumki, matnni o'qib tushunish, o'zlashtirish jarayoni va bosqichlari haqida tilshunoslikda ham, pedagogik o'lchovlarga oid tadqiqotlarda ham matnni o'zlashtirishning muayyan boshqichlari aniqlangan va ilmiy tomondan isbotlanib dalillar keltirilgan. Tadqiqotlardagi ilmiy farazlar bir-birini to'ldiradi. O'zbek tilshunosligida psixolingvist olimi I. Azimova *O'qib tushunish* malakasiga to'xtalib, matnni o'qib o'zlashtirishni quyidagicha izohlaydi: "Matnni o'qib tushunish murakkab psixolingvistik jarayon bo'lib, grafemalarni tanish, so'zni o'qish, so'zning lug'aviy ma'nosini, kontekstual ma'nosini anglash, sintaktik strukturani to'g'ri hal etish (ya'ni, so'zlarning o'zaro munosabati, qaysi so'z gapdagi asosiy tushunchani, qaysilari unga tobe tushunchalarni ifodalayotganini anglash), shuningdek, matn mazmuniy bloklarining o'zaro bog'lanishini tushunish kabi darajalardan iborat bo'ladi"[1. B. 222]. Olimaning mazkur nazariy qarashlari asosida matnni o'zlashtirish **harfni tanish → so'zni o'qish → so'zning ma'nolarini anglash → gap bilan bog'liq grammatik hodisalarni qabul qilish → matnning umumiy va qismlarini anglash** kabi jarayonlardan iborat deyishimiz mumkin.

Jahon tilshunosligida Kolin M. Braun, P.Xagurt, M.Kutaslar matnni tushunishni quyidagi darajalarini farqlaydilar:

- a) signalni boshqa signallardan farqli o'laroq nutqiy signal sifatida anglash;
- b) signalning tarkibiy qismlarga segmentatsiyasi;
- v) segmentatsiya qilish jarayonining mahsuliga asoslangan holda mental leksikonga chiqish;
- g) leksikondan mos so'zni tanlash;
- d) oxirgi so'zni hisobga olgan holda gap uchun mos grammatik strukturani tuzish;
- e) gap tarkibidagi so'zlar o'rtasida semantik aloqani o'rnatish[2.881].

Darhaqiqat, mazkur nazariy qarash ham matnni o'zlashtirish bir-birini davom ettiruvchi murakkab jarayonligini dalillaydi.

Mazkur qarashlarni birlashtirgan holatda shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, matnni tushunish, uni idrok qilish, o'zlashtirish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshadi. **(1-rasm)** Ammo hammada ham bu bosqichlar tartibli amalga oshmaydi.



**1-rasm. Matni o'qib tushunish bosqichlari**

Modul sifatida keltirilgan mazkur matni o'qib tushunish bosqichlari baholash mezonlarini belgilashda alohida hisobga olinishi lozim.

Baholash bilan shug'ullanadigan tashkilotlarning hisobotlarida, pedagogik o'lchovlarni takomillashtirish yuzasidan tadqiqot olib borayotgan izlanuvchilarning ilmiy materiallarida o'qib tushunish malakasini baholash mezonlarini hamda domen, sub-domen, konstruktlarni belgilash yuzasida bir qancha tavsiyalar berilgan. Xususan, bizda Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan e'lon qilingan "Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash" metodik qo'llanmasida matni tushunish darajasini baholashda quyidagi o'rinlarga diqqat qaratilishi keltirib o'tiladi[3.92]:

- matndan tegishli ma'lumotni qidirish va tanlash;
- matni tushunish;
- matnning juz'iy ma'nosini ifodalashni o'rganish;
- integratsiya qilib matn yaratishni ifodalash;
- matni sifat va ishonchliligini baholash;
- matnda ifodalangan shakl va mazmun haqida mulohaza yuritish;
- tafovutlarni aniqlash va ular bilan ishlash.

Mazkur talablardan bilinib turibdiki, ona tilidagi matni o'qib tushunish darajasini aniqlash matni ta'sirchan va ifodali o'qish jarayonini tekshirish emas, balki o'qilgan matni idrok qilish, fahmlash va real hayotda qo'llay olish bilan bog'liq ko'nikma va malakalarni baholash jarayonidir.

Jahon til o'qitish metodikasida matnni o'qib tushunish malakasini baholash o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab ta'lim jarayonida keng qo'llanila boshlagan. Buning omili sifatida o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmasi, o'qish savodxonligi yuqori bo'lgan yurtlarda iqtisodiy-ijtimoiy o'sish yuqorilashgani qayd etilgani keltiriladi. Hozirgi kunda o'qib tushunish ko'nikmasini, umuman savodxonlikni, amaliy ko'nikmalarni baholash, tahlil qilish va o'quvchilarning savodxonlik darajasi bo'yicha xalqaro reytinglarni tuzish bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlar ham faoliyat yuritmoqda. Mazkur dalillar ham ona tili o'qitish metodikasining oldida o'quvchilarning o'qib tushunish malakasini rivojlantirish metodikasi va baholash mezonlarini yaratish dolzarb masalalardan bir bo'lib turganligini ko'rsatadi.

J.Ch. Alderson "O'qib tushunish malakasini baholash" qo'llanmasida tilni egallaganlik darajasini baholovchi xalqaro tashkilotlarning baholash mezonlarini qiyoslab chiqib, baholovchi konstruktlar ikki guruhga ajratilishini qayd etadi[4.128].

1. Umumiy konstruktlar.

2. Analitik konstruktlar.

Shuningdek, olimning o'qib tushunish malakasini baholovchi konstruktlarini umumlashtirib quyidagicha belgilashimiz mumkin:

- matndagi aniq ma'lumotlarni topa olish;
- matndagi ma'lumotlarni anglash;
- matn mazmunini, voqealar ketma-ketligini aniqlash
- muallif ko'zlagan asosiy g'oyani topish;
- matnning asosiy mavzusini va konsepsiyasini aniqlash;
- matndagi g'oyalar o'rtasidagi munosabatni aniqlash, taxmin, sabab, ta'sir, yechimlarni idrok qilish;
- matndagi dalillarni, fikrlarni, ta'riflarni, natijalarni farqlash va taqqoslash;
- matndagi fikrlarni, dalillarni baholash, uning kamchiliklarini aniqlash;
- matnga mavzusi, konsepsiyasi va dalillari asosidan munosabat bildirish;
- matndagi dalillar asosida mantiqiy xulosalar chiqarish;
- matndagi asosiy g'oyani tushunish
- matn maqsadini aniqlash;
- matn mazmunini amaliyotda qo'llay olish.

Mazkur nazariy qarashlarni umumlashtirib, tadqiqotlarimizga tayanib ona tili ta'limida matnni o'qib tushunish malakasini baholashda quyidagi indikatorlar (konstrukt)ga asoslanish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz:

- matnda aniq ifodalangan ma'lumotni (raqam, nom va hokazo) topa olish va tushunish;
- matnda o'z ma'nosida ishlatilgan leksik birliklarning ma'nosini tushunish;
- matnda ko'chma ma'noda ishlatilgan leksik birliklarning ma'nosini tushunish;
- matndagi ibora, maqol, hikmatli so'zlar ma'nosini tushunish;
- matn qismlarini bog'lovchi vositalar ma'nosi va ularning matndagi vazifasini tushunish;
- matnning grammatik qurilishini anglash;
- matnda ochiq va yashirin ifodalangan ma'lumotlarni tushunish;
- matndagi chizma va diagrammalarda berilgan vizual ma'lumotlarni anglash;
- matndagi verbal va vizual ma'lumotlar o'rtasidagi bog'liqliklarni tushunish;
- matndagi mazmuniy bog'lanishlarni anglash;

- matnning yoki uning qismlarining umumiy ma’nosini tushunish;
- matnda muallif maqsadini aniqlash;
- matn g’oyasini anglash;
- matn mazmunini tushunish va talqin qila olish;
- matndagi fikrlar va muallif nuqtayi nazarining aniqligini baholay olish;
- matndagi ma’lumotlarni tashqi ma’lumotlar bilan bog’lab tahlil qila olish;
- matndan olingan ma’noni o’zining borliq haqidagi tasavvurlari bilan bog’lash;
- matnni o’qib tushunib hayotiy muammolarni hal qila olish, unga yechim topa olishi;
- matnni o’qib tushunib, real hayotiy vaziyatlarda qo’llay olish;
- matn mazmunidagi ziddiyatlarning sabablarini tahlil qilish, izlash va aniqlash hamda o’z g’oyalarini taqdim eta olish.

Matnni o’qib tushunish metakognitiv jarayon bo’lib, ona tilidagi matnlarni o’qib tushunish malakasini baholashda matnni o’qib tushunish darajalarining barchasini qamrab olish maqsadga muvofiq deb o’ylaymiz.

Xulosa qilib aytganda, ona tili ta’limida o’quvchilarning matnni o’qib tushunish malakasini baholash, o’quvchilarda insonlarni tushunish, voqelikni fahmlash, hayotiy vaziyatlarni idrok qilish ko’nikmasini rivojlantiradi. Bu esa ko’plab muammolarga yechim topa olish, jamiyat farovonligi, xalq birdamligi, totuvligiga olib keladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. I. Azimova, Ona tili ta’limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi. Global ta’lim va milliy metodika. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent: PRINT 25, 2019. – B. 215–224.
2. Brown Colin M., Hagoort P., Kutas M. Postlexical Integration Processes in Language Comprehension: Evidence from Brain- Imaging research // The New Cognitive Neurosciences. Ed. Michael S. Gazzaniga. Massachusetts Institute of Technology, 2000. – P. 881.
3. Xalqaro tadqiqotlarda o’quvchilarning o’qish savodxonligini baholash (Ona tili va adabiyot fani o’qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassisleri uchun metodik qo’llanma). Ta’lim inspeksiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini baholash bo’yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. – Toshkent, 2019. – B. 92.
4. J. Charles Alderson. Assessing Reading. Cambridge University Press 2000. – P. 398.
5. Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2020, – B. 252.
6. Abdiraimov Sh.S. Theoretical fundamentals of mother tongue level assessment. Academia: An International Multidisciplinary Research Journal. Vol. 10, Issue 12, December 2020. 10.5958/2249-7137.2020.01751.6.
7. Meena Singhal. Effective Methods of Assessing Reading Comprehension. <https://medium.com/age-of-awareness/effective-methods-of-assessing-reading-comprehension-b2ace7f5f9a0>